



ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
**xalqaro ilmiy-metodik jurnal**

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
**международный научно-методический журнал**

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
**international scientific-methodical journal**

**№3(11) 2024**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Джуманиязова Мухайё Хусиновна, Науменко Евгений Александрович. Проектный подход психологических оснований формирования государственного патриотизма молодежи в Узбекистане .....	98
Raximova Gularo. Shihobiddin Suhravardiyning shogirdlik odobiga doir axloqiy qarashlarining pedagogik asoslari.....	109
Rajabova Lobar Choriyevna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ ijodkorligida STEAM yondashuvdan foydalanish yo‘llari .....	114
Rasulova Oygul Odil qizi. Genetika fanidan belgilarning mustaqil holda irsiylanishi mavzusiga doir masalalarning yechilishi va tahlili .....	123
Шарипова Лобар Олимовна. Экологическое воспитание и межкультурная коммуникация: как учитывать экологические традиции и ценности разных народов .....	129
Yulduz Asadovna Po‘lotova. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida axborot-resurslar integratsiyasini ta’minalash–metodik muammo sifatida .....	132
Xalillayeva Go‘zaloy Mo‘minjon qizi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv faoliyklarini rivojlantirishda mediasavodxonlikni boshqa fanlar bilan integratsiyasi .....	137
Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna. Hikoyada tarixiylik sinkretizmi .....	141
Shodiyeva Jamila Xolboyevna. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni tahlil qilishda savol va topshiriqlardan foydalanish.....	145
Avliyoqulov Abdug‘afur. V-VI sinflarda aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuvlar vositasida o‘qitishning nazariy asoslari .....	150
Dilnoza Mamatova. Maktabgacha yoshdagি bolalarga chet tilini o‘rgatish borasidagi uslubiy yondashuvlar tahlili.....	155
Xodjayarova Sevara Abdimurat qizi. Bo‘lajak pedagoglarning ijodiy sifatlarini rivojlantirishning mazmuni va metodikasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish vositalari .....	160
Yarashov Mardon Jobir o‘g‘li. Boshlang‘ich ta’limida raqamli texnologiyalar orqali didaktik o‘yinlarni qo‘llash .....	163
Abdumannatov Abdumajit Matayevich. Alisher navoiy ma’naviy merosining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni .....	167
Shukurova Nigina Luqmonovna. Muammoli ta’lim texnologiyalari orqali talabalarda pedagogik kompetensiyani rivojlantirish.....	171
Avezov Davronbek Soburovich. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash tizimi .....	175
Qoraboyev Husniddin Kamolovich. Matn mazmuni doirasida beriladigan uy vazifasini so‘rash usullari.....	180
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna. Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining konseptual asoslari ...	184
Alijon Ruzikulovich Khamroev. Technology for designing students' creative abilities .....	187
Ahunbabayeva Shahnoza. Tarbiyachilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali faoliyatlar samaradorligini oshirish texnologiyalari.....	192
Tilavova Minavar Durdievna. Pedagogik ta’lim jarayonida talabalar kompozitsion-mantiqiy nutqini rivojlantirish metodikasi .....	196
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. Fransuz tilidagi san’atga oid terminlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi tahlili.....	199
Ergasheva Barno Ziyaviddin qizi. Pedagoglik kasbi va uning kasbiy kompetensiyalari .....	204
Qo‘ldosheva Nigoraxon Avezmurodovna. Boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida o‘quvchilarining muloqot madaniyati ko‘nikmasini shakllantirishning dolzarbligi.....	207
Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini ingliz tili bilan integratsiyalab o‘rgatishning nazariy asoslari.....	212
Mustafoyev O‘tkirjon Rustamovich. Maktab fizika darslarida o‘quvchilar faolligini oshirishda sun’iy intellektning o‘rni.....	216
Protasov Yorqinjon Yoqubjon o‘g‘li. Scratch dasturlash muhitida turli shakllarni chizish metodikasi .....	221

Rasulova Oygul Odil qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Genetika va evolutsion biologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

## **GENETIKA FANIDAN BELGILARNING MUSTAQIL HOLDA IRSIYLANISHI MAVZUSIGA DOIR MASALALARING YECHILISHI VA TAHLILI**

*Ushbu maqolada ikki juft bir-birini inkor qiluvchi belgilarga ega bo‘lgan organizmlar chatishdirilganda olingan avlodlardagi belgilarning irsiylanishi masalalar yechish orgali tahlil qilingan. Belgilarning mustaqil holda irsiylanishiga oid masalalar yechish va yechimini tahlil qilish ushbu qonunyatni chuqurroq tushunishga hizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** genetika, genotip, fenotip, dominantlik, diduragay chatishdirish

### **РЕШЕНИЕ И АНАЛИЗ ВОПРОСОВ ПО ТЕМЕ НЕЗАВИСИМОГО НАСЛЕДОВАНИЯ ПРИЗНАКОВ ИЗ ГЕНЕТИКИ**

*В данной статье путем решения задач анализируется наследование признаков у потомства, полученного при скрещивании двух пар взаимоисключающих признаков. Анализ и решение вопросов, связанных с независимым наследованием признаков, помогает глубже понять данный закон.*

**Ключевые слова:** генетика, генотип, фенотип, доминирование, дигибридное скрещивание

### **RESOLUTION AND ANALYSIS OF ISSUES ON THE TOPIC OF INDEPENDENT HEREDITY OF SIGNS IN GENETICS**

*In this article, the inheritance of characters in the offspring of hybridized organisms with two pairs of mutually exclusive characters is analyzed by solving problems. Solving problems related to the independent distribution of symbols and analyzing the solution will contribute to a deeper understanding of this law.*

**Keywords:** genetics, genotype, phenotype, dominance, dihybrid crosses

**Kirish.** Genetikani o‘rganishning ajralmas bosqichlaridan biri genetikaga oid masalalarni yechish va tahlil qilishdir. Bu masalalar genetika fanining o‘ziga hosligini, jozibadorligini hamda mohiyatini oshirishga hizmat qiladi [6]. F.Ayalaning fikricha, genetika biologiya fanining o‘zagidir, biologiyadagi har qanday fakt genetik nuqtai nazardangina tushunarli bo‘ladi. Faqat genetika doirasidagina hayot shakllari va jarayonlarining xilma xilligini bir butun tizim sifatida tushunish mumkin [4,5]. Genetikani o‘rganishda masalalar yechish orgali mavzuni tushunish genetik qonunatlarning mohiyatini chuqurroq anglashga, kreativ fikrlashga hamda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlanishiga olib keladi [7]. Shuning uchun genetikaga doir masalalarning yechilish usullarini ishlab chiqish va dars jarayonida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Diduragay olish uchun Mendel ikki juft belgisi bilan keskin farqlanuvchi no‘xat navlarini chatishtirdi. Bunda olingan  $F_2$  duragay o‘simliklarda har ikki belgisi bo‘yicha ajralish sodir bo‘lib, 4 ta fenotipik, 9 ta genotipik guruhlar hosil bo‘ldi [2]. Diduragaylardagi olingan natijalarini xulosalab, Mendel uchinchi – “Belgilarning mustaqil holda irsiylanishi” qonunini yaratdi. Bu qonunning mohiyati organizmning bir juft belgilari uning boshqa juft belgilariga bog‘liq bo‘lmagan holda, mustaqil irsiylanishini bildiradi. Shunga ko‘ra ikkinchi avlodda ota-onalari belgilarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘simliklardan tashqari, bir belgini changchi o‘simlikdan, ikkinchi belgini urug‘chi o‘simlikdan olgan duragaylar paydo bo‘ladi [1]. Shuning uchun Mendelning uchinchi qonuni quyidagicha ta’riflanadi: “Ikki yoki undan ortiq bir-

**124** birlarini inkor qiluvchi belgilari bo‘lgan geterozigota organizmlar o‘zaro chatishtirilganda belgilarning mustaqil nasldan naslga o‘tishi yoki kombinatsiyalanishi kuzatiladi” [3].

**Belgilarning mustaqil holda irsiylanishiga doir masalalar yechish metodikasi.**

Diduragay chatishtirishda duragaylash uchun ikki juft bir-birini inkor qiluvchi belgilarga ega bo‘lgan organizmlar chatishtiriladi. Bular 3 xil ko‘rinishda bo‘ladi.

1. Har ikkala belgi bo‘yicha to‘liq dominant holda irsiylanish
2. Bitta belgi bo‘yicha to‘liq, ikkinchi belgi bo‘yicha to‘liqsiz (chala) dominant holda irsiylanish
3. Ikkala belgi bo‘yicha to‘liqsiz (chala) dominant holda irsiylanishi

**Har ikkala belgi bo‘yicha to‘liq dominant holda irsiylanishga doir masala:** Bulg‘or garmdorilarining qizil va yashil rangli, yupqa va qalin etli xillari mavjud. Qizil rangni boshqaruvchi gen dominant, qalin etli bo‘lishi retsessiv genga bog‘liq. Har ikkala gen har xil autosomalarda joylashgan. Digeterozigotali qizil va yupqa po‘stli garmdorilar o‘zaro chatishtirilib olingan avloddalarda fenotipik va genotipik nisbatlarni hamda fenotipik va genotipik guruuhlar sonini aniqlang.

**Masalaning yechilishi:**

Belgi	Gen			
qizil rang (Qi)	A	qizil rangli, yupqa etli		qizil rangli, yupqa etli
yashil rang(Ya)	a	P	♀ AaBb	♂ AaBb
yupqa etli (Yu)	B	g	AB, Ab, aB, ab	AB, Ab, aB, ab
qalin etli (Qa)	b			

**1-usul:**

F (avlod)

♂\♀	AB	Ab	aB	ab
AB	Qi, Yu AABB	Qi, Yu AABb	Qi, Yu AaBB	Qi, Yu AaBb
Ab	Qi, Yu AABb	Qi, Qa AAbb	Qi, Yu AaBb	Qi, Qa Aabb
aB	Qi, Yu AaBB	Qi, Yu AaBb	Ya, Yu aaBB	Ya, Yu aaBb
ab	Qi, Yu AaBb	Qi, Qa Aabb	Ya, Yu aaBb	Ya, Qa aabb

Bunda 9 ta o‘simlik qizil rangli, yupqa etli; 3 ta o‘simlik qizil rangli, qalin etli; 3 ta o‘simlik yashil rangli, yupqa etli; 1 ta o‘simlik yashil rangli, qalin po‘stli bo‘ldi. Genotipik guruuh soni 9 ta, fenotipik guruuh soni 4 tani tashkil qildi.

**Javob:**

Genotipik nisbat: 1:2:1:2:4:2:1:2:1; Genotipik guruuh 9 ta

Fenotipik nisbat: 9:3:3:1; Fenotipik guruuh 4 ta

**2-usul:** Digeterozigota organizmlar chatishtirilganda, har ikkala gen bo‘yicha to‘liq dominant holda irsiylanadigan holatlarga doir masalalarda fenotipik va genotipik nisbat hamda fenotipik va genotipik guruuhlar sonini quyidagicha topish mumkin. Bunda har bir belgi bo‘yicha chatishtirilganda fenotipik jihatdan 3:1 nisbatda ajralish, genotipik jihatdan 1:2:1 nisbatda ajralish ro‘y bergani uchun fenotipik va genotipik nisbatlarni topish uchun ular bir biriga ko‘paytiriladi. To‘liq dominantlikda fenotipik guruuh soni  $2^n$  formulasi, genotipik guruuh soni  $3^n$  formulasi orqali topiladi. Bunda n ota-onan genotipidagi geterozigotalar sonini bildiradi.

**Javob:**

Fenotipik nisbat (3:1)(3:1)= 9:3:3:1; Fenotipik guruuh  $2^n = 2^2 = 4$

Genotipik nisbat (1:2:1)(1:2:1)=1:2:1:2:4:2:1:2:1 Genotipik guruuh  $3^n = 3^2 = 9$

**3-usul:** Fenotipik radikallar asosida masalani yechimini shakllantirish. Bunda har bir fenotipik radikal asosida genotiplar shakllantiriladi. Diduragay chatishtirishda digeterozigota

organizmlardan olingen avlodda har bir genotipning takrorlanish soni shu genotip hosil qiladigan gametalar soniga teng bo‘ladi. Shuning uchun har bir genotipni takrorlanish sonini topish uchun 2<sup>n</sup> dan foydalananamiz. Bu yerda n geterozigotalar sonini ifodalaydi. Shu genotiplar asosida fenotip, fenotipik guruh va fenotipik nisbatlarni topamiz.

Fenotipik radikal	genotiplar	genotipklarning takrorlanish soni (genotipik nisbat)	fenotiplar	fenotipik nisbat va fenotipik guruhlar soni
A_B_	AABB	$2^0=1$	qizil rangli, yupqa etli	9 (1)
	AABb	$2^1=2$		
	AaBB	$2^1=2$		
	AaBb	$2^2=4$		
A_bb	AAbb	$2^0=1$	qizil rangli, qalin etli	3 (2)
	Aabb	$2^1=2$		
aaB_	aaBB	$2^0=1$	sariq rangli, yupqa etli	3 (3)
	aaBb	$2^1=2$		
aabb	aabb	$2^0=1$	sariq rangli, qalin etli	1 (4)

#### Javob:

Genotipik nisbat: 1:2:2:4:1:2:1:2:1; Genotipik guruh 9 ta

Fenotipik nisbat: 9:3:3:1; Fenotipik guruh 4 ta

**Bir belgi bo‘yicha to‘liq, ikkinchisi belgi bo‘yicha to‘liqsiz dominantlik holda belgilarning irsiylanishiga doir masala:** G‘o‘zada poyasining uzun bo‘lishi kalta poya ustidan to‘liq dominantlik qiladi, tolaning qo‘ng‘ir rangi esa oq rangi ustidan chala dominantlik qilib, tolaning novvot rangda bo‘lishi oraliq xarakterga ega bo‘ladi. Ushbu belgilar bo‘yicha digeterozigota g‘o‘zalar o‘zaro chatishdirilganda, olingen avloddalarda fenotipik va genotipik nisbatlarni hamda fenotipik va genotipik guruhlar sonini toping.

#### Masalaning yechilishi:

Belgi	Gen			
uzun poya (U)	A	uzun poya, novvot rang		uzun poya, novvot rang
kalta poya (K)	a	P	♀ AaBb	x
qo‘ng‘ir rangli tola (Q)	B	g	AB, Ab, aB, ab	AB, Ab, aB, ab
oq rangli tola (O)	b			
novvot rangli tola (N)	Bb			

#### 1-usul:

F (avlod)

$\text{♂}$	$\text{♀}$	AB	Ab	aB	ab
AB		U.Q. AABB	U.N. AABb	U.Q. AaBB	U.N AaBb
Ab		U.N. AABb	U.O. AAbb	U.N. AaBb	U.O. Aabb
aB		U.Q. AaBB	U.N. AaBb	K.Q. aaBB	K.N. aaBb
ab		U.N. AaBb	U.O. Aabb	K.N. aaBb	K.O. aabb

Bunda 3 ta o‘simlik uzun poya, qo‘ng‘ir tolali; 6 ta o‘simlik uzun poya, novvot rang tolali; 3 ta o‘simlik uzun poya, oq tolali; 1 ta o‘simlik kalta poya, qo‘ng‘ir tolali; 2 ta o‘simlik kalta poyali

126 novvot rang tolali; 1 ta o'simlik kalta poyali, oq tolali bo'ldi. Genotipik guruh soni 9 ta, fenotipik guruh soni 6 tani tashkil qildi.

**Javob:**

Genotipik nisbat: 1:2:1:2:4:2:1:2:1; Genotipik guruh 9 ta

Fenotipik nisbat: 3:6:3:1:2:1; Fenotipik guruh 6 ta

**2-usul:** Digeterozigota organizmlar chatishirilganda, bir belgi bo'yicha to'liq, ikkinchi belgi bo'yicha to'liqsiz dominant holda belgilarning irsiyanishiga doir masalalarda fenotipik va genotipik nisbat hamda fenotipik va genotipik guruhlar sonini quyidagicha topish mumkin. Bunda to'liq dominant belgi bo'yicha chatishirilganda fenotipik jihatdan 3:1 nisbatda ajralish, genotipik jihatdan 1:2:1 nisbatda ajralish, chala dominant belgi bo'yicha chatishirilganda esa fenotipik jihatdan 1:2:1 nisbatda ajralish, genotipik jihatdan ham 1:2:1 nisbatda ajralish ro'y beradi va bu nisbatlar bir biriga ko'paytirilib genotipik va fenotipik nisbatlar topiladi. To'liq dominantlikda fenotipik guruh soni 2<sup>n</sup> formulasi, chala dominantlikda esa 3<sup>n</sup> formula bilan, genotipik guruh soni 3<sup>n</sup> formulasi orqali topiladi. Bunda n ota-onas genotipidagi geterozigotalar sonini bildiradi.

**Javob:**

Fenotipik nisbat (3:1)(1:2:1)= 3:6:3:1:2:1; Fenotipik guruh 2<sup>n</sup>×3<sup>n</sup>= 2<sup>1</sup>×3<sup>1</sup>=6

Genotipik nisbat (1:2:1)(1:2:1)=1:2:1:2:4:2:1:2:1; Genotipik guruh 3<sup>n</sup>= 3<sup>2</sup>=9

**3-usul:** Fenotipik radikallar asosida masalan yechimini shakllantirish. Bunda har bir fenotipik radikal asosida genotiplar shakllantiriladi. Shu genotiplar asosida fenotip, fenotipik guruh va fenotipik nisbatlarni topamiz. Bu yerda bir belgi bo'yicha to'liq, ikkinchi belgi bo'yicha to'liqsiz dominantlik holda belgilarning irsiyanishi kuzatilgani uchun bitta fenotipik radikalni ifodalaydigan genotiplar bir xil fenotipni ifodalamasligi ham mumkin. Masalan fenotipik radikallardan A\_B\_ 2 ta fenotipik guruhn, A\_bb 1 ta fenotipik guruhn, aaB\_ 2 ta fenotipik guruhn aabb 1 ta fenotipik guruhn ifodalaydi.

Fenotipik radikal	genotiplar	genotipiklarning takrorlanish soni (genotipik nisbat)	fenotiplar	fenotipik nisbat va fenotipik guruh soni
A_B_	AABB	2 <sup>0</sup> =1	uzun poya, qo'ng'ir tola	3 (1)
	AABb	2 <sup>1</sup> =2	uzun poya, novvotrang tola	
	AaBB	2 <sup>1</sup> =2	uzun poya, qo'ng'ir tola	
	AaBb	2 <sup>2</sup> =4	uzun poya, novvotrang tola	
A_bb	AAbb	2 <sup>0</sup> =1	uzun poya, oq tola	3 (3)
	Aabb	2 <sup>1</sup> =2	uzun poya, oq tola	
aaB_	aaBB	2 <sup>0</sup> =1	kalta poya, qo'ng'ir tola	1 (4)
	aaBb	2 <sup>1</sup> =2	kalta poya, novvotrang tola	2 (5)
Aabb	Aabb	2 <sup>0</sup> =1	kalta poya, oq tola	1 (6)

**Javob:**

Genotipik nisbat: 1:2:2:4:1:2:1:2:1; Genotipik guruh 9 ta

Fenotipik nisbat: 3:6:3:1:2:1; Fenotipik guruh 6 ta

**Ikkala belgi bo'yicha to'liqsiz (chala) dominant holda irsiyanishiga doir masala:**

G'o'za o'simligida o'simlikning antotsion rangi yashil rangi ustidan to'liqsiz, tolaning qo'ng'ir rangi oq rangi ustidan to'liqsiz dominantlik qiladi. Har ikki belgi bo'yicha dominant gomozigotali g'o'za o'simligi har ikki belgisi retsessiv gomozigotali boshqa bir g'o'za o'simligi bilan chatishirilib, F<sub>1</sub> da o'simlik rangi oraliq, tolosi novvot rangda bo'lgan duragay o'simliklar olindi. F<sub>1</sub> duragaylarini o'z-o'zi bilan changlantirib F<sub>2</sub> o'simliklari olindi. F<sub>2</sub> duragaylarida kuzatiladigan genotipik va fenotipik nisbatlarni hamda genotipik va fenotipik guruhlar sonini aniqlang.

**Masalaning yechilishi:**

Belgi	Gen	oraliq rang, novvotrang tola	X	oraliq rang, novvotrang tola
o'simlik antotsion rangi (A)	AA	P ♀ AaBb	X	♂ AaBb
o'simlik yashil rangi (Y)	aa	g AB, Ab, aB, ab		AB, Ab, aB, ab
o'simlik oraliq rangi (Or)	Aa			
qo'ng'ir rangli tola (Q)	BB			
oq rangli tola (O)	bb			
novvotrang tola (N)	Bb			

**1-usul:**

F (avlod)

♂\♀	AB	Ab	aB	Ab
AB	A.Q. AABB	A.N. AABb	Or. Q. AaBB	Or.N. AaBb
Ab	A.N. AABb	A.O. AAbb	Or.N. AaBb	Or.O. Aabb
aB	Or. Q. AaBB	Or.N. AaBb	Y.Q. aaBB	Y.N. aaBb
Ab	Or.N. AaBb	Or.O. Aabb	Y.N. aaBb	Y.O. aabb

Bunda 1 ta o'simlik antotsion rangli, qo'ng'ir tolali; 2 ta o'simlik antotsion rangli novvotrang tolali; 1 ta o'simlik antotsion rangli, oq tolali; 2 ta o'simlik oraliq rangli, qo'ng'ir tolali; 4 ta o'simlik oraliq rangli, novvotrang tolali; 2 ta o'simlik oraliq rangli, oq tolali; 1 ta o'simlik yashil rangli, qo'ng'ir tolali; 2 ta o'simlik yashil rangli, novvotrang tolali; 1 ta o'simlik yashil rangli, oq tolali bo'ldi. Genotipik va fenotipik guruhlar soni 9 tani tashkil qildi.

**Javob:**

Genotipik nisbat: 1:2:1:2:4:2:1:2:1; Genotipik guruh 9 ta

Fenotipik nisbat: 1:2:1:2:4:2:1:2:1; Fenotipik guruh 9 ta

**2-usul:** Digeterozigota organizmlar chatishdirilganda, har ikkala belgi bo'yicha to'liqsiz dominant holda irsiyanishga doir masalalarda fenotipik va genotipik nisbat hamda fenotipik va genotipik guruhlar sonini quyidagicha topish mumkin. Bunda har ikkala belgi bo'yicha to'liqsiz dominant belgiga ega bo'lgan organizmlar chatishdirilganda har bir belgi va gen bo'yicha fenotipik va genotipik jihatdan 1:2:1 nisbatda ajralish ro'y beradi. Chala dominantlikda fenotipik va genotipik guruh 3<sup>n</sup> formulasi orqali topiladi. Bunda n ota-onasiga genotipidagi geterozigotalar sonini bildiradi

**Javob:**Fenotipik nisbat (1:2:1)(1:2:1)= 1:2:1:2:4:2:1:2:1; Fenotipik guruh 3<sup>n</sup>×3<sup>n</sup>= 3<sup>1</sup>×3<sup>1</sup>=9Genotipik nisbat (1:2:1)(1:2:1)=1:2:1:2:4:2:1:2:1; Genotipik guruh 3<sup>n</sup>= 3<sup>2</sup>=9

**3-usul:** Fenotipik radikallar asosida masalani yechimini shakllantirish. Bunda har bir fenotipik radikal asosida genotiplar shakllantiriladi. Shu genotiplar asosida fenotip, fenotipik guruh va fenotipik nisbatlarni topamiz. Bu yerda har ikkala belgi bo'yicha to'liqsiz holda belgilarning irsiyanishi kuzatilgani uchun bitta fenotipik radikalni ifodalaydigan genotiplarning har biri alohida fenotipni ya'ni AABB antotsion rang, qo'ng'ir tolali; AABb antotsion rang, novvotrang tolali; AaBB oraliq rang, qo'ng'ir tolali; AaBb oraliq rangli, novvotrang tolali; AAAb antotsion rangli, oq tolali; Aabb oraliq rangli, oq tolali; aaBB oq rang, qo'ng'ir tolali; aaBb oq rang, novvotrang tolali; aabb oq rang, oq tolali bo'lishini ifodalaydi.

128

Fenotipik radikal	genotiplar	genotipiklarning takrorlanish soni (genotipik nisbat)	fenotiplar	fenotipik nisbat va fenotipik guruh soni
A_B_	AABB	$2^0=1$	antotsion rang, qo'ng'ir tola	1 (1)
	AABb	$2^1=2$	antotsion rang, novvotrang tola	2 (2)
	AaBB	$2^1=2$	oraliq rang, qo'ng'ir tola	2 (3)
	AaBb	$2^2=4$	oraliq rangli, novvotrang tola	4 (4)
A_bb	AAbb	$2^0=1$	antotsion rangli, oq tola	1 (5)
	Aabb	$2^1=2$	oraliq rangli, oq tola	2 (6)
aaB_	aaBB	$2^0=1$	oq rang, qo'ng'ir tola	1 (7)
	aaBb	$2^1=2$	oq rang, novvotrang tola	2 (8)
Aabb	aabb	$2^0=1$	oq rang, oq tolali	1 (9)

**Javob:**

Genotipik nisbat: 1:2:1:2:4:2:1:2:1; Genotipik guruh 9 ta

Fenotipik nisbat: 1:2:1:2:4:2:1:2:1; Fenotipik guruh 9 ta

**Xulosa.** Genetika fanida qonunyatlarini masala va mashqlar orqali o'rghanish ushbu qonunyatlarini chuqurroq anglashga, kreativ fikrlashga olib keladi. Belgilarning mustaqil holda irsiylanishiga oid masalalar tuzish, yechish va yechimini bir necha usallarda ishlab tahlil qilish ushbu qonunyatni analiz va sintez qilib o'rghanish uchun hizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.T. G'ofurov, S.S. Fayzullaev. Genetika va evolutsion ta'lilot – Toshkent 2012, 47 bet
2. D.A. Musayev, Sh. Turabekov, A.T. Saidkarimov, S. Almatov, A.K. Raximov. Genetika va seleksiya asoslari – Toshkent «Voris-nashriyoti» 2012, 25-bet.
3. O.E. Eshonqulov, K.N. Nishonboyev, M. Sh. Bosimov. Genetika "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent–2010, 15-bet
4. Айала Ф., Кайгер Дж. Современная генетика. – М.: Мир, 1987. – 295 с.
5. Дикарев С.Д. Генетика: Сборник задач. – М.: Первое сентября, 2002. – 112 с.
6. Кириленкова В.Н., Кишинская О.Ю. Посторонение личного образовательного маршрута при изучении темы «Генетика» // Биология в школе, 2007, №8, с. 49-56.
7. Расулова, О. О., Маткаримова, С. X., & Рахимов, А. К. (2024). Мактаб қувчиларида генетика масалаларини ечиш орқали табиий илмий саводхонлигини ривожлантириш. Academic Research in Educational Sciences, 5(1), 45–48.